

ARAB SHOIRI SULAYMON AL-ISO BOLALAR SHE'RIYATIDA OILA MAVZUSI

Muxiddinova Dilafruz Zohroddionovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, f.f.d., dotsent

e-mail: dmuhiddinova@inbox.ru +998998291180**Oripova Dilfuza Mirqodir qizi**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, talaba

e.mail - dilfuzsmirkadirovna19@gmail.com +998770080708<https://doi.org/10.5281/zenodo.20379800>**Annotatsiya**

Ushbu maqola Suriya shoiri Sulaymon al-Isoning "Bolalar devoni" (*ديوان الأطفال*) asaridagi oila mavzusiga bag'ishlangan she'rlarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada oilaga aloqador olti she'r — "Onam" (*أمي*), "Otam" (*أبي*), "Mansur amaki duradgor" (*عمي منصور نجار*) — she'rlari tanlab olingan. Mazkur she'rlarning mazmun-mohiyati, badiiy xususiyatlari — istiora (metafora), tashbeh (o'xshatish), tashhis (shaxslantirish), takrir va mubolag'a san'atlari — tahlil qilinadi. Maqola arabshunoslik va bolalar adabiyoti sohalari kesishmasidagi ilmiy izlanish sifatida arab bolalar she'riyatini o'zbek o'quvchisiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Sulaymon al-Iso, Bolalar devoni, arab bolalar she'riyati, oila mavzusi, badiiy tahlil, o'zbek tarjimasini, istiora, tashbeh, arab adabiyoti.*

Аннотация

Данная статья посвящена научному анализу стихотворений на тему семьи из произведения сирийского поэта Сулейман аль-Исса «Диван детей» (*ديوان الأطفال*). В статье рассматриваются шесть стихотворений, связанных с семейной тематикой: «Моя мать» (*أمي*), «Мой отец» (*أبي*), «Дядя Мансур — плотник» (*عمي منصور نجار*). Анализируются художественные особенности стихотворений, такие как истеара (метафора), ташбих (сравнение), олицетворение, повтор и гипербола. Статья представляет собой научное исследование на стыке арабистики и детской литературы и служит сближению арабской детской поэзии с узбекским читателем.

Ключевые слова: Сулейман аль-Исо, Диван детей, арабская детская поэзия, семейная тематика, литературный анализ, узбекский перевод.

Annotatsioon

This article is devoted to the scholarly analysis of poems on the theme of family in the work *Diwan al-Atfal* (*ديوان الأطفال*) by the Syrian poet Sulayman al-Issa. The article examines six family-related poems: "My Mother" (*أمي*), "My Father" (*أبي*), "Uncle Mansur the Carpenter" (*عمي منصور نجار*). The artistic features of the poems — including *استعارة* (metaphor), *تشبيه* (simile), personification, repetition, and hyperbole — are analyzed. The article serves as a scholarly study at the intersection of Arabic studies and children's literature, contributing to bringing Arabic children's poetry closer to the Uzbek reader.

Keywords: Sulayman al-Iso, *Diwan al-Atfal*, Arabic children's poetry, family theme, literary analysis, Uzbek translation, *isti'ara*, *tashbih*.

Sulaymon al-Iso (1921–2021) — XX asrning ikkinchi yarmi arab adabiyotida bolalar she'riyatini yangi bosqichga ko'targan suriyalik shoir, muallim va jamoat arbobi. Sulaymon al-Iso 1921-yili Suriyaning Lazkiya viloyatidagi al-Shu'airiya qishlog'ida tavallud topdi. Boshlang'ich ta'limini otasi Shayx Ahmad al-Isodan — diniy va adabiy ilm sohibidan — oldi. Yosh yoshidan arab

milliy harakatiga qo'shildi, frantsuz mustamlakasiga qarshi kurashda qatnashdi va bir necha marta qamoqqa tushdi. Halabdagi maktablarda yillar davomida arab tili va adabiyotini o'qitdi.

Shoir 1967-yilgi Iyun urushidagi og'ir mag'lubiyat haqida shunday yozgan: «O'sha yildan boshlab bolalar uchun she'r yozishni boshladim va bu vazifaga o'ttiz besh yildan ortiq vaqt va energiyamning katta qismini bag'ishladim. Men bolalarga g'alabani emas — kurash va kelajak ruhini berishni istadim.» Bu iqror shoirning bolalar adabiyotiga munosabatini to'liq ifodalaydi.

Sulaymon al-Iso Osiyo va Afrika yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Lotus" mukofotiga sazovor bo'ldi (1990), Damashq Arab tili akademiyasiga a'zo etib saylandi. Uning she'rlari Suriya, Misr, Livan va boshqa arab mamlakatlarida maktab darsliklariga kiritilgan.

Sulaymon al-Isoning bolalarga mo'ljallangan “Bolalar devoni” (ديوان الأطفال) nomli to'plami mavjud bo'lib, devondagi she'rlar bir necha asosiy mavzuviy yo'nalishni qamrab oladi: oila va mehr, tabiat va o'yin, ta'lim va bilim, vatan va milliy ong, mehnat va ijtimoiy hayot. Ushbu maqolada biz oila mavzusiga e'tibor qaratamiz — devondagi eng ko'p va eng chuqur qatlamni tashkil etuvchi mavzu, chunki shoir oilani bolaning birinchi maktabi, birinchi madrasasi deb bilgan.

Oila mavzusidagi she'rlar quyidagi mezonlar asosida ajratib olindi:

1. She'rning asosiy obrazi oila a'zolaridan biriga bag'ishlanganligi;
2. She'rda oilaviy munosabat yoki oilaviy muhit markaziy o'rin egallaganligi;
3. Bolaning oilaga nisbatan his-tuyg'usi bevosita ifodalanganligi.

Shoir oila mavzusini alohida qadrlab, undagi she'rlarni yozishda ikkita tamoyilga amal qilganini qayd etgan: birinchisi — bolaning sevgisi va his-tuyg'usiga sadoqat (oilani bolaning ko'zi bilan tasvirlash); ikkinchisi — badiiy go'zallik (faqat tarbiyaviy nasihat emas, balki she'riy huzur ham). Bu ikki tamoyil asosida oila she'rlari yaratilgan.

"Onam" (أمي)

“Onam” she'ri Sulaymon al-Iso ijodidagi eng samimiy va ta'sirchan she'rlardan biri hisoblanadi.

مَلَكٌ يَرِفُ عَلَيَّ سَرِيرِي
 يَخْتُو بِأَنْفَاسِ الْعَيْرِ
 سِرُّ الْإِلَهِ بِمُقَلَّتِيهِ
 وَتَعِيمُهُ فِي رَاحَتِيهِ
 أَعْلَى مِنَ الدُّنْيَا عَلَيَّا
 وَأَحَبُّ مَخْلُوقِ الْبَيَّا
 أَفِيدي الْمَلَكَ السَّاهِرَا
 قَلْبًا عَلَيَّ وَنَاطِرَا
 لَوْ كُنْتُ يَوْمًا شَاعِرًا
 أَبَدَعْتُ أَجْمَلَ مَا تُعَنِّي
 عُصْفُورَةٌ فِي مِثْلِ سِنِّي
 وَسَقَيْتُ صَوَاءَ الْعَجْرِ لَحْيِي
 وَحَمَلْتُ أُعْنِيَّتِي لِأُمِّي
 أَحَلَى أَنَا شَيْدِ الْهَوَى قُبَلَاتُ أُمِّي

Yotog'im uzra parvona — bir farishta,
Atir taraladi nafasidan har lahza.

¹ Diwan al-Atfal, Damashq: Dar al-Fikr.1999, 16-bet

Ko'zlarida — yaratganning ulug' siri,
 Kaftlarida — jannatning shirin huzuri.
 U mendan dunyodan-da aziz, qadri,
 Eng sevimli jonzot men uchun — onaginam.
 Jonim qurbon — uyqusiz turgan farishta,
 Yuraginga soqchidir, ko'zimga nigohbon.
 Bir kun shoir bo'lib qolsam edi, ey,
 Eng go'zal kuyini ijod etardim ohanglar bilan.
 Yoshim baravar kichik bir bulbul kabi,
 Tongning nuriga ohangimni qondirardim.
 Va onamga qo'shig'imni olib borardim,
 Lekin eng shirin sevgi qo'shig'i — onam bo'salaridir.

"Onam" she'ri — devondagi oila mavzusida yozilgan eng yetuk va ko'p qatlamli asarlardan biri. She'r bolaning tilidan birinchi shaxsda aytilgan lirik monolog bo'lib, ona obrazini boyitilgan ramzlar tizimi orqali taqdim etadi.

Sulaymon al-Iso “Onam” she’rida bolalarcha tafakkur bilan onaga mehr-his tuyg’uni ifodalagan. She’rning har bir satrida bolalarcha beg’uborlik, samimiylilik, iltifot mujassamlashgan. Shoir oddiygina, soddagina she’ri orqali bolalarga tushunarli, tez yod olishiga mo’ljallab yozganki, bola beixtiyor yod oladi, qo’shiq qilib kuylaydi. Har bir bola uchun onam — dunyodagi eng ulug’ mavjudot. Sulaymon al-Iso bu his-tuyg’uni she’rga solganida, bolaning ko’zi va qulog’i bilan yozgan.

She’rning tahlilida bir necha badiiy san’atlar ko’zga tashlanadi. Birinchi misradan boshlanuvchi farishta obrazi — istiora (metafora) san’atining namunasi: ona-farishta tengligi bevosita bolaga aytilmaydi, balki u obraz orqali his ettiriladi. Shoir uchun bu tanlov tasodifiy emas — farishta tushunchasi arab-islomiy madaniy kontekstda soqchilik, ilohiy himoya va soflik ma’nolarini birlashtiradi. Bola kechasi uxlab yotganda, onasi uning yonida — bu oddiy hayot haqiqatini shoir shu yorqin obraz orqali beradi.

"Ko'zlarida iloh siri" va "kaftida jannat ne'mati" misralari mubolag'a san'atining nozik namunasi. Bu she'riy mubolag'a bolaning his-tuyg'usini ifodalaydi. Bola onasini dunyodagi eng buyuk zot deb his qiladi — bu bolaning samimiy hissi, va shoir aynan shu hisni ifodalaydi. She’rdagi “Dunyo-borliqdan aziz menga, eng sevimli zot” degan misralar bola uchun onasidan aziz shaxs yo’qligini bizga ifodalaydi. Darhaqiqat, bola endi dunyoga kelganda ham faqat onasini taniydi, go’yoki bu dunyoda faqat u va onasi bordek his qiladi.

Bola she’rda shoir bo’lishni va tong nuridan kuy yasashni istaydi va ayni shu misrada biz istiorani uchratishimiz mumkin. Bola nomidan kuylangan bu she’rning so’ngida bola barcha qo’shiqlarini onasiga hadya qilishini aytadi.

"Otajonim otam" (۷۷)

² Diwan al-Atfal, 1999, Damashq: Dar al-Fikr. 10-bet

بَابَا بَابَا دُمْتُ رَبِيْعًا
 يَوْمَكَ طَابَا دُمْتُ سَبَابَا
 لِي وَلَا جُلِي الْوَطَنِ الْعَالِي
 يَعْمَلُ بَابَا دُونَ مَلَالِ
 بَابَا يَنْعَبُ حَتَّى تَكْبُرُ
 تَبْنِي نَحْنُ الْوَطَنِ الْأَكْبُرُ
 وَطَنِي الْأَكْبُرُ وَطَنِي الْعَرَبِي
 صَاءً وَحَرَّرَ عَبْرَ الْحَقْبِ
 بَابَا صُورَتُكَ الْمَحْبُوبَةُ
 فِي قَلْبِي أَبَدًا مَكْتُوبَةُ
 بَابَا بَابَا يَوْمَكَ طَابَا

Otajonim, otam — sen bahor bo'lib qolgin,
 Kuning omadli kelsin, yashnab tursin har on.
 Men uchun va aziz Vatanim uchun har don,
 Otam mehnat qiladi — charchamasdan, tinmasdan.
 Otam ter to'kar biz ulg'ayguncha har dam,
 Biz quramiz eng katta Vatanni shu damgacham.
 Mening eng katta Vatanim — arab Vatanim aziz,
 Asrlar osha yorishdi va ozodlikni topdi.
 Otam, sening suvrating — eng sevimli, eng yorqin,
 Yuragimda abadiy bitilgan bir parcha qog'oz.
 Otam, otam — sening kuning eng omadli, har on!

“Otajonim otam” she’ri ota mehr-muhabbati, uning oilasi va vatani uchun qilgan fidokorona mehnatini madh etuvchi ta’sirchan asardir. She’rda farzandning otaga bo’lgan cheksiz hurmati va minnatdorligi samimiy tuyg’ular orqali ifodalangan. Shoir otani oilaning tayanchi, farzandlarning kamoloti uchun tinimsiz mehnat qiluvchi inson sifatida tasvirlaydi. Asarda ota obrazi juda ulug’vor qilib ko’rsatilgan. U farzandlari va vatani ravnaqi uchun charchoq bilmay ishlaydi. “Otam mehnat qiladi — charchamasdan, tinmasdan” degan misralarda otaning mashaqqatli mehnati va sabr-toqati yaqqol namoyon bo’ladi. Farzand esa otasining ana shu zahmatlari tufayli voyaga yetayotganini his qiladi va kelajakda buyuk vatan qurishga intiladi.

She’rda vatanparvarlik ruhi ham kuchli aks etgan. Shoir ota mehnatini vatan ravnaqi bilan bog’laydi. Farzandlar ulg’ayib, ozod va buyuk vatanni qurishlari kerakligi ta’kidlanadi. Bu esa yosh avlodni mehnatsevarlikka, birlikka va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

Asarda takrorlar va samimiy murojaatlar ko’p qo’llangan. “Otajonim otam” degan iboraning qayta-qayta takrorlanishi farzandning mehrini va otaga bo’lgan yaqinligini yanada kuchaytiradi. She’rning tili sodda, ravon va hissiyotlarga boy bo’lib, o’quvchi qalbiga tez yetib boradi.

Ushbu she’r ota-onaga hurmat, mehnatni qadrlash va vatanni sevish kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarannum etadi. Asar har bir insonni ota-onasining qadriga yetishga va ular qilgan mehnatni unutmaslikka chorlaydi.

"Mansur amaki duradgor") (عَمِي مَنْصُور النَجَّار)

³ Diwan al-Atfal, 1999, Damashq: Dar al-Fikr 11-bet

عَمِّي مَنْصُورٌ نَجَّارٌ
 فِي يَدِهِ الْمُنَشَّارُ
 يَعْمَلُ وَهُوَ يُعَنِّي
 أَجْمَلُ مَا أَشْعَارُ
 قُلْتُ لَهُ: عِنْدِي لُغْبَةٌ
 اصْنَعْ لِي بَيْتًا لِلْغَبَّةِ
 هَرَّ الرَّأْسَ وَقَالَ:
 أَنَا أَهْوَى الْأَطْقَالَ
 بَعْدَ قَلِيلٍ رُحْتُ إِلَيْهِ
 شَيْءٌ خُلُوْ بَيْنَ يَدَيْهِ
 سَوَّاهُ عَمِّي مَنْصُورُ
 أَخْلَى مِنْ بَيْتِ الْعُصْفُورِ
 عَمِّي مَنْصُورٌ نَجَّارُ
 يُبْدِعُ فِي يَدِهِ الْمُنَشَّارُ

Mansur amakim — duradgor,
 Qo'lida arra mahkam ishlaydi.
 Ishlaydi va qo'shiq aytar,
 Eng go'zal she'rlardan darha!
 Aytдим unga: «Bir o'yinchog'im bor,
 Yasab bering, iltimos, unga kichik uyni.»
 Boshini liqillatib dedi:
 «Men bolajonlarni sevaman!»
 Ozigina o'tib oldiga keldim,
 Bir shirin narsa turibdi qo'lida.
 Buni Mansur amakim yasab qo'ydi —
 Chumchuq uyidan-da go'zalroq edi.
 Mansur amakim — duradgor,
 Arrasi qo'lida ijod yaratar har on.

“Mansur amakim — duradgor” she’ri mehnatsevar inson obrazini samimiy va sodda tarzda tasvirlovchi asardir. She’rda duradgor Mansur amakining kasbiga bo’lgan muhabbati, bolalarga mehribonligi hamda o’z mehnati orqali go’zallik yaratishi ifodalangan. Asar bolalarda mehnatga hurmat va kasb egalariga nisbatan ehtirom tuyg’ularini shakllantiradi.

She’r boshida Mansur amakining duradgor ekani va uning arra bilan mohirona ishlashi tasvirlanadi. Shoir uni oddiy hunarmand emas, balki mehnat jarayonida qo’shiq aytadigan, ishidan zavq oladigan inson sifatida ko’rsatadi. Bu holat Mansur amakining kasbini sevib bajarishini bildiradi. “Eng go’zal she’rlardan” degan ifoda esa uning mehnati va qo’shiqlari inson qalbiga quvonch bag’ishlashini anglatadi.

Asarda bolaning Mansur amakiga murojaati ham juda samimiy tasvirlangan. Bola o’z o’yinchog’i uchun kichkina uycha yasab berishni so’raydi. Mansur amakining “Men bolajonlarni sevaman!” deb javob berishi uning mehribon va saxiy inson ekanini ko’rsatadi. U bolani xursand qilishni o’zining burchi deb biladi.

She’r davomida Mansur amakining mahorati natijasi tasvirlanadi. Bola uning yasagan buyumini ko’rib hayratga tushadi. Hatto u “chumchuq uyidan-da go’zalroq” deb ta’riflanadi. Bu o’xshatish orqali duradgorning iste’dodi va mehnati ulug’langan.

Asarda mehnat va ijod bir-biriga uyg'un holda tasvirlangan. Shoir duradgorlikni oddiy ish emas, balki san'at darajasiga ko'targan. “Arrasi qo'lida ijod yaratar har on” degan misra bunga yaqqol misoldir. Bu orqali har qanday kasbni sevib bajarilsa, u ijodga aylanishi mumkinligi anglatiladi.

Ushbu she'r mehnatsevarlik, hunarga muhabbat va insoniy mehr-oqibat g'oyalarini tarannum etadi. Mansur amakining obrazi orqali bolalar halol mehnat qilishga, kasb egalarini hurmat qilishga va boshqalarga yaxshilik ulashishga undaladi.

Xulosa qilib aytganda, Sulaymon al-Iso ijodidagi oila a'zolari haqidagi she'rlar nafaqat bola qalbida balki kattalar qalbida ham mehr-oqibat, hurmat va minnatdorlik tuyg'ularini uyg'otadi. Ota-onalar, qarindoshlar va mehnatkash insonlar obrazi orqali oilaning inson hayotidagi beqiyos o'rni bolalarga go'zal tarzda yoritiladi. Bunday she'r va hikoyalar bolalarni kattalarni e'zozlashga, mehnatni qadrlashga hamda oilaga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Chunki mehr va birlik hukm surgan oila jamiyatning mustahkam tayanchi hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. al-Iso, Sulaymon. Diwan al-Atfal. Damashq: Dar al-Fikr, 1999. (سليمان العيسى. ديوان الأطفال. دمشق: دار الفكر، ١٩٩٩)
2. al-Iso, Sulaymon. Kuliyat al-shi'riyya (To'liq she'riy asarlar, 4 jild). Bayrot: al-Muassasa al-Arabiyya lil-Dirasat wa-l-Nashr, 1995.
3. al-Iso, Sulaymon. 'Ala tariq al-'umr: ma'alim sira zatiyya. Bayrot: al-Muassasa al-Arabiyya, 1996.
4. Kitab fi Jarida, son 84 (2005-yil 3-avgust). Suleyman al-Iso: Diwan al-Atfal — maqola va she'rlar. Bayrot: MBI Foundation — al-Nahda.
5. Yo'ldoshev, Q. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2014.